



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 111-117 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ AHOLISINING MOLIVAYIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI



Fatilloev Farrux Farhod o'g'li
Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
3-2IQT-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasi, insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar, raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz aholisining moliyaviy savodxonligini oshirishda muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi xorijiy davlatlar tajribasidan unumli foydalanish, xorijiy davlatlarning moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tajribalarini O'zbekistonda moliyaviy bilimlarni oshirish jarayoniga qo'llashga doir tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish (kirim-chiqim), bozor instrumentlari, raqamli iqtisodiyot, mobil konsultatsiyalar, raqamli xizmatlar.

Абстрактный. В данной статье рассмотрены понятие финансовой грамотности, факторы, влияющие на уровень финансовой грамотности людей, проблемы повышения финансовой грамотности населения нашей страны в условиях цифровой экономики и пути их преодоления, эффективное использование опыта зарубежных стран в повышении финансовой грамотности, зарубежных стран по повышению финансовой грамотности даны рекомендации по применению их опыта в процессе повышения финансовых знаний в Узбекистане.

Ключевые слова: финансовая грамотность, управление личными финансами, бюджетирование (доходов и расходов), рыночные инструменты, цифровая экономика, мобильные консультации, цифровые услуги.

Abstract. In this article the concept of financial literacy, factors influencing the level of financial literacy of people, problems of increasing financial literacy of population of our country in conditions of digital economy and ways of their overcoming, effective use of experience are considered. foreign countries in increasing financial literacy, foreign countries in increasing financial literacy recommendations on application of their experience in the process of increasing financial knowledge in Uzbekistan are given.

Key words: financial literacy, personal finance management, budgeting (income and expenditure), market instruments, digital economy, mobile consultations, digital services.

Kirish.

Moliyaviy savodxonlik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yanada shaffof, sog'lom va barqaror iqtisodiyotga intilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Moliyaviy savodxonlik — shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish (kirim-chiqim) va investitsiyalarni o'z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko'nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir.

Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar bo'yicha savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi muhim hisoblanadi. Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o'z moliyaviy resurslarini to'g'ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambag'allik yoki o'rta hol turmush darajasidan yuqori pog'onalarga chiqishi murakkablashadi.[1]

Tadqiqot usullari.

Tadqiqot uchun ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, shuningdek, axborotni qayta ishlashning statistik va grafik usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Aholining moliyaviy savodxonligini o'rganish bo'yicha ijtimoiy tadqiqotlar metodologiyasi iqtisodiy va sotsiologiya fanlari klassiklarining asarlariga asoslanadi, ular orasida, birinchi navbatda, V. Pareto, P. Samuelson, M. Veber, K. Marks, E. Dyurkgeymni eslatib o'tish kerak. Moliyaviy savodxonlikni moliyaviy xulq-atvorga xos xususiyat sifatida tushunish moliyaviy xulq-atvorning turli tomonlarini ochib beruvchi asarlarga murojaat qilishni taqozo etdi. Moliyaviy xulq-atvorni o'rgangan mualliflar orasida biz ikkala xorijiy ham ajratib ko'rsatishimiz mumkin - J. Keyns, K. Polanyi, D. Rikardo, M. Fridman, P. A. Sorokin, J. Shumpeter va mahalliy tadqiqotchilar - T. Yu., G. G. Sillaste, V. S. Tapilina, A. I. Fotixov, R. T. Nasibullina va boshqalar shular jumlasidandir.[2]

Tahlil va natijalar

"O'zbekiston-2030" strategiyasida moliyaviy savodxonlik muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiya moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholini raqamli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam berishni maqsad qilgan. Quyida "O'zbekiston-2030" strategiyasida moliyaviy savodxonlik bo'yicha asosiy jihatlarni ko'rib o'tamiz. Moliyaviy savodxonlikning ahamiyati. Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan aholi raqamli iqtisodiyotga tezroq moslashadi va iqtisodiy faoliyatda faolroq ishtirok etadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholi o'z moliyaviy resurslarini samarali boshqarishi, qarzlarni boshqarishi va tejash ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Ta'lim dasturlari. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlikka oid fanlarni joriy etish va aholi uchun moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus o'quv kurslari va treninglar tashkil etish mumkin.[2]

Mamlakatimizda "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Va natijada aholi orasida moliyaviy savodxonlik darajasining sezilarli oshishi, raqamli xizmatlardan foydalanish ko'nikmalarining rivojlanishi, aholining iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali umumiy iqtisodiy farovonlikka erishishi yuz berdi. Ushbu strategiya raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun kompleks

yondashuvni taklif etadi va mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz aholisining moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlarining 2020-2024 yilgi tahlili¹

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Moliyaviy savodxonlik darajasi, % da	45	50	55	60	65
Asosiy sabablari	Moliyaviy savodxonlikka oid ma'lumotlarning yetishmasligi, ana'naviy iqtisodiy ta'lim tizimining zaifligi.	Raqamli xizmatlarning kengayishi, moliyaviy savodxonlik dasturlarining ko'payishi.	Mahalliy hukumatlar va notijorat tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan moliyaviy savodxonlik kampaniyalari	Raqamli ta'lim platformalarining rivojlanishi va aholining ko'proq raqamli xizmatlardan foydalanishi.	Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat siyosatining kuchaytirilishi, xalqaro hamkorlik.
Raqamli platformalardan foydalanish	Ommabop bo'lmagan, asosiy foydalanuvchilar katta shaharlarda.	Banklar va moliyaviy institutlar raqamli xizmatlarni kengaytirgan.	Mobil banking va elektron tijorat xizmatlarining ommalashishi.	Onlayn kurslar va vebinarlar orqali moliyaviy ta'lim kengaydi.	Yangi texnologiyalar va platformalarning joriy etilishi, raqamli ta'limning ommalashishi
Muammo va yechimlar	Internet orqali moliyaviy ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan.	Qishloq joylarida raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan	Moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha hududiy farqlar	Internetga ulanish va raqamli savodxonlikdagi tafovutlar.	Moliyaviy savodxonlik bo'yicha davriy monitoring tizimining joriy etilishi.

¹ Muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020 yildan 2024 yilgacha moliyaviy savodxonlik darajasi 20% ga oshdi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi moliyaviy savodxonligi darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun amalga oshirilgan dastur va kompaniyalar muhim rol o'ynadi. Bu jarayonda muallif tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha doimiy dasturlarni kengaytirish va kuchaytirish, raqamli platformalar orqali ta'lim olish imkoniyatlarini ko'paytirish, internet infratuzilmasini yaxshilash va qishloq joylarida raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlarini oshirish kabi tavsiyalar berib o'tildi.[7]

Bu tahlil mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlarining oshish tendensiyasini ko'rsatadi va kelgusida bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha yo'nalishlarni belgilab beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz aholisining moliyaviy savodxonligini oshirishda bir qator muammolar tadqiqot jarayonida o'rganildi. Ushbu muammolarga quyidagilar kiradi. (2023-2024 yillardagi holati)[2]

1. Moliyaviy savodxonlikning past darajasi. Iqtisodiy bilimlarning yetishmasligi. Aholining katta qismi moliyaviy tushunchalar, mahsulotlar va xizmatlar haqida yetarli bilimga ega emas. Bu, o'z navbatida, moliyaviy qarorlar qabul qilishda muammolar keltirib chiqaradi. Iqtisodiy sohadagi tushunarsizlik. Moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqida tushunarsizlik, shuningdek, ularning murakkabligi aholining ulardan foydalanishini qiyinlashtiradi.

2. Ta'lim va axborot yetishmovchiligi. Moliyaviy ta'limning yetishmasligi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha dasturlar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu yosh avlodning moliyaviy savodxonligini oshirish imkoniyatini cheklaydi. Axborot manbalari. Moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqida yetarli, ishonchli va to'liq axborot manbalarining yetishmasligi.

3. Texnologik imkoniyatlar va raqamli infratuzilmaning kamchiligi. Internetga ulanish. Qishloq hududlarida internetga ulanish imkoniyatlarining pastligi, bu esa raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni cheklaydi. Raqamli infratuzilma. Banklar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

4. Ijtimoiy va madaniy to'siqlar. An'anaviy ko'nikmalar. Aholining katta qismi an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanishga odatlangan va raqamli xizmatlardan foydalanishga tayyor emas. Moliyaviy maslahatlar. Professional moliyaviy maslahat xizmatlarining yetishmasligi aholining ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi.

5. Xavfsizlik masalalari. Kiber xavfsizlik. Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda kiberxavfsizlikka oid qo'rquv va shubhalar aholining bu xizmatlardan foydalanishiga to'sqinlik qiladi. Firibgarlik. Onlayn firibgarlik va boshqa xavflar haqida yetarli axborot yetishmasligi.[3]

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi xorijiy davlatlar tajribasidan unumli foydalanish, xorijiy davlatlarning moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tajribalari O'zbekistonda moliyaviy bilimlarni oshirish jarayoniga qo'llash foydali bo'lishi mumkin. Quyida bir nechta davlatlarning ushbu yo'nalishdagi muvaffaqiyatli tajribalari keltirib o'tamiz.[4]

AQSh tajribasi. Moliyaviy ta'lim dasturlari. AQShda maktablardan boshlab moliyaviy savodxonlik darslari kiritilgan. "Jump\$tart Coalition for Personal Financial Literacy" tashkiloti moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqadi va ularni maktablarda tatbiq etadi. National Endowment for Financial Education (NEFE). Bu tashkilot moliyaviy ta'lim bo'yicha turli xil resurslar va dasturlarni taqdim etadi. NEFE barcha yosh guruhlari uchun moliyaviy ta'limni oshirishga qaratilgan.[9]

Buyuk Britaniya tajribasi. Money Advice Service (MAS). Buyuk Britaniyada "Money Advice Service" tashkiloti tomonidan moliyaviy savodxonlik bo'yicha bepul maslahatlar va onlayn resurslar taqdim etiladi. Bu xizmat aholining moliyaviy bilimlarini oshirish va ularning moliyaviy qarorlarini yaxshilashga yordam beradi. Moliyaviy ta'limni kengaytirish. Buyuk Britaniya maktablarida moliyaviy savodxonlik fanlari kiritilgan va bu orqali yosh avlodning moliyaviy bilimlari oshiriladi.[4]

Kanada tajribasi. Financial Consumer Agency of Canada (FCAC). Kanada "Financial Consumer Agency" orqali aholiga moliyaviy savodxonlik bo'yicha bepul onlayn kurslar, vebinarlar va maslahatlar taqdim etadi. FCAC moliyaviy rejalashtirish, byudjet tuzish va qarz boshqaruvi bo'yicha keng qamrovli resurslarni taqdim etadi. Moliyaviy savodxonlik milliy strategiyasi. Kanada hukumatining moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy strategiyasi mavjud bo'lib, bu strategiya doirasida aholiga moliyaviy ta'lim berish va ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.[8]

Avstraliya tajribasi. MoneySmart. Avstraliyaning "MoneySmart" dasturi orqali aholiga moliyaviy savodxonlik bo'yicha keng qamrovli resurslar taqdim etiladi. Ushbu dastur maktablarda, universitetlarda va ish joylarida moliyaviy ta'limni rivojlantirishga yordam beradi. Moliyaviy maslahat xizmatlari. Avstraliyada moliyaviy maslahat xizmatlari keng tarqalgan bo'lib, aholiga moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beriladi.[5], [6]

Yangi Zelandiya tajribasi. Commission for Financial Capability (CFFC). Yangi Zelandiyada moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha "Commission for Financial Capability" tashkiloti faoliyat yuritadi. Bu tashkilot aholiga moliyaviy ta'lim resurslari, treninglar va maslahatlar taqdim etadi. Sorted.org.nz. Yangi Zelandiyada aholiga moliyaviy rejalashtirish, byudjet tuzish va qarz boshqaruvi bo'yicha bepul onlayn resurslarni taqdim etuvchi "Sorted.org.nz" veb-sayti mavjud.

Yuqorida berilgan xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanib, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin:[5]

1. Moliyaviy ta'limni kengaytirish. Moliyaviy savodxonlik fanlari. Maktab va universitetlarda moliyaviy savodxonlik fanlarini kiritish, yosh avlodga moliyaviy rejalashtirish, byudjet tuzish, kredit boshqaruvi va investitsiyalar haqida bilim berish jarayonini takomillashtirish kerak. Moliyaviy ta'lim resurslari. Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali moliyaviy savodxonlik bo'yicha bepul kurslar va treninglar tashkil qilish muhim hisoblanadi.

2. Axborot kompaniyalarini o'tkazish. Media kompaniyalar. Televideniye, radio va internet orqali moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan axborot kompaniyalarini

o'tkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar. Ijtimoiy tarmoqlarda moliyaviy savodxonlik bo'yicha interaktiv materiallar, videolar va postlar tarqatish kerak bo'ladi.

3. Texnologik infratuzilmani rivojlantirish. Internetga ulanishni kengaytirish. Qishloq joylarda internetga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish va internet tariflarini kamaytirish kerak. Raqamli xizmatlarni takomillashtirish. Banklar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlarni rivojlantirish va ularning xavfsizligini ta'minlash lozim.

4. Moliyaviy maslahat va konsultatsiya xizmatlari. Konsultatsiya markazlari. Banklar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan aholiga bepul moliyaviy maslahat xizmatlarini taqdim etadigan konsultatsiya markazlari tashkil etish alohida muhim hisoblanadi. Mobil konsultatsiyalar. Mobil telefon orqali moliyaviy maslahat olish imkoniyatini yaratish lozim.

5. Moliyaviy mahsulot va xizmatlar bilan tanishtirish. Demo hisoblar. Moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanishni o'rganish uchun demo hisoblar taqdim etish kerak. Yangi mahsulotlar. Banklar va moliyaviy tashkilotlar tomonidan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqida aholiga batafsil ma'lumot berish va ularni foydalana olish ko'nikmalarini oshirish kerak.

6. Xavfsizlik choralarini oshirish. Kiberxavfsizlik. Moliyaviy savodxonlik dasturlarida kiberxavfsizlik mavzularini kiritish va aholiga kiberxavfsizlik haqida keng qamrovli ma'lumot berish lozim. Firibgarlikka qarshi kurash. Onlayn firibgarlikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar va aholiga bu borada ma'lumot berish kerak. Ushbu chora-tadbirlar orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamli moliyaviy xizmatlardan to'g'ri foydalanish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.[9]

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish, aholining moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mumkin. Moliyaviy savodxonlikni oshirish aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi va umuman iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi uchun muhimdir. Xorijiy davlatlarning tajribasi va milliy chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida jamiyatning iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish har qanday jamiyatning iqtisodiy barqarorligini va farovonligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy savodxonlik shaxsning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni tushunishi, ulardan ongli foydalanishi, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishi va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/>
2. <https://lex.uz/docs/-6600413>

3. Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.
4. Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582.
5. Huston S.J. Measuring Financial Literacy. The Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.
6. Улугмуродов Д. Молиявий саводхонлик нима? - <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/10461-moliyavij-savodkhonlik-nima>.
7. И. Туропов. Молиявий саводхонлик ўзи нима, у нима учун долзарб? Bankers.uz
8. Vaxabov A.V. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma. Toshkent-2013.
9. E. Hojiyev, O. Kamalov, B. Artikov. "Moliya huquqi". Ma'ruzalar kursi. Toshkent. 2012.
10. A.V. Vahobov, T.S. Malikov. "Moliya" darslik. Toshkent. 2012.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

